

---

## FARG'ONA TUMANI HOKIMI HAMIDULLO INOMOV SOHALARGA OID O'RINBOSARLAR BILAN BIRGA, ANKLAV HUDUD HISOBLANGAN SHOHIMARDON VA YORDON MAHALLA FUQAROLAR YIG'INI HUDUDIDA BO'LDI.

Hududni va Davlatimiz rahbari tomonidan yaratib berilayotgan sharoitlarni aholiga qay darajada yetib borayotganini o'rganish barobarida tuman hokimi Yordon mahallasida barpo etilayotgan yangi bolalar bog'chasidagi qurilish jarayonlari bilan tanishdi.

Yordonliklar uchun qad rostlayotgan 120 o'rinli bolalar bog'chasida qurilish ishlari avjida. Zamonaviy va barcha qulayliklarga ega ushbu binoda barcha sharoitlar yaratilayapti va bundan hudud aholisining kayfiyati a'lo - deydi mahalla raisi.

Bu hammasi emas Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tassarufidagi 2-maktabda esa sport zali shu kunlarda foydalanishga topshiriladi.

Tuman hokimi Hamidullo Inomov ish jarayonlarini va qurilish ishlari uchun hom ashyolarning yetib kelishi qolaversa binolarning vaqtida qurilib foydalanishga topshirilishini o'z nazoratiga olgan. Bu borada soha mas'ullariga tegishli ko'rsatmalar ham berib o'tildi.



**Farg'ona tumani hokimligi Axborot xizmati.**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Instagram](#) | [Youtube](#) | [Telegram](#)

2024-03-27 14:31:52